

Utayeva Dilobar Utkir qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti

yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Usarova Laylo Ibragimovna

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola buyuk adib Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari haqida yozilgan. Bunda adib hayoti haqida ham fikrlar keltirilgan. Muallifning odoq-axloq haqidagi qarashlari bayon qilinadi. Boshqa kasblar egalari haqida ham o‘z qarashlarini aytib o‘tgan. Asar to‘laligicha tarbiya ruhida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, naql, “Qutadg‘u bilig”, tarbiya, davlat, adolat, Qashqar, ofiyat, qanoat.

Yusuf Xos Hojib XI asrda yashab ijod qilgan adiblarimizdan hisoblanadi. "Qutadg'u bilig" adib nomini jahonga mashhur qilgan. Turkiy tilda yaratilgan yozma adabiyotimizdagi yirik didaktik asardir. Adib hayoti haqida ma'lumotlar kam va qisman dostonida aytib o'tilgan. Yusuf Xos Hojib Bolasog'unda yashab ijod qilgan. "Umumiy hajmi olti ming olti yuz baytdan ortiq bo'lgan dostonning bir yarim yilda yozilishi adibning juda katta tajribasi va ulkan mahoratidan dalolatdir. Asar Qashqarda tugatiladi va mamlakat eligi-hukmdori Tavg'och ulug' Bug'roxonga tortiq qilinadi. Buning evaziga esa u Xos Hojiblik lavozimi bilan taqdirlanadi. Bular asardagi nasriy muqaddimada o'z aksini topgan". [1: 71] Doston qisqa vaqt ichida yozildi. Unda insoniy xislatlar rostgo'ylik, mehnatsevarlik, do'stlik, sodiqlik, xushmuomalalik, mehribonlik, jasurlik, vatanparvarlik ulug'lanadi.

"Qutadg'u bilig" ("Saodatga eltuvchi bilim") dostonida ta'lim-tarbiyaga, odoq-axloqqa alohida e'tibor beriladi. Tarbiya to'g'risida Islom Karimov o'zining

"Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida shunday deb yozadi: "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi- bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir". [2:62] Chindan ham ta'lim bilan tarbiya yonma-yon ishlatiladigan tushunchalardir. "Qutadg'u bilig" bilan bir qatorda Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit- turk" , Yassaviyning "Hikmatlar"i, Kaykovusning "Qobusnoma" asarlari ham didaktik yo'nalishda yozilgan. "Qutadg'u bilig" dostonida to'rtta asosiy qahramon ishtirok etadi:

Kuntug'di-elig- adolat timsoli. Yusuf Xos Hojib shunday tasvirleydi: "qilmishlari to' g'ri, fe'l-u raftori rost, tili chin, yetuk, ko'zi va ko'ngli boy, bilimli, zakovatli, hushyor, yomonlarga misli olov edi".

Oyto'ldi-vazir. Davlat timsoli.

O'gdulmish- vazirning o'g'li, otasining vafotidan keyin vazir. Aql timsoli.

O'zg'urmish- Oyto'ldining uzoq qarindoshi. Zohid-qanoat timsoli.

O'zg'urmish asarda qanoatli inson obrazida ishtirok etadi. Uning harakatlarida, suhbatlarida, aytgan gap-so'zlarida inson nafsga berilib ketmasligi, oxirat haqida ham o'ylashi kerakligi ifodalanadi. U insonlarni tanni emas ruhni boyitishga harakat qilishga undaydi. Buning yo'li ma'rifatdir. Bu haqida O'gdulmishga shunday deydi: " Sen tansiq taomlarni, men esa oddiy arpa oshni yeymz. Uxlab tursak ikkimiz ham och qolamiz. Shunday ekan bunday ovqatlarga ruju qo'yishning nafi yo'q. Sen kimxoblarga o'ralib yurasan, men esa dag'al yungdan tikilgan to'n bilan kifoyalanaman. Ertaga o'lim kelsa, ikkimiz ham yalang'och ketamiz-ku!".

Asar, asosan, qahramonlarning suhbatlari asosiga qurilgan. Kuntug'di adolatli, insofli, mard-jasur hukmdor bo'ladi. Oyto'ldi bilan suhbatlarida

"Ishni adolat bilan hal qilaman,

Beg (sifat) yoki qul (sifat) kishilarni ajratib, farqlab o'tirmayman" - deb aytadi. Uning ismi ham ramziy ma'no anglatadi. Kun, ya'ni quyoshga nisbat beriladi. Quyosh barchaga bir xil nur sochganidek, hukmdor ham barcha aholiga bir xil adolatda bo'lishi kerak.

Kuntug'di va Oyto'ldi orasida ko'p suhbatlar bo'lib o'tadi. Ba'zan kelishmovchiliklarga ham uchrab turishadi. Oyto'ldining o'limi va Kuntug'di

eligning g'amga to'lganlik voqealari ham ancha jonli tasvirlangan. Yusuf Xos Hojib bilim olishga ham alohida to'xtalib o'tadi. Asarning " Insonning qadr-qimmati bilim bilan belgilanishi haqida" qismida shunday yozadi: "Bilimning buyukligini va zakovatning ulug'ligini anglagin, bu ikkalasiga ega bo'lgan sara kishilar ulug'likka erishadilar. Bilimsiz kishilar misoli dardmand bo'ladilar, dardni davolamagan kishi esa bevaqt o'ladi". Bu bilan adib insonlarni bilimli bo'lishga, o'qib- o'rganishga chorlaydi. Kasalmand kishi erta vafot etgani kabi bilimsiz kishi ham ma'nan vafot etgan hisoblanadi. Odob-axloqli, bilimli kishilar jamiyatda o'z o'rnini topib keta oladi. Atrofdagilar hurmati, e'tiborini qozonadi. Shuningdek, inson tilini ham boshqara olishi kerak. Dostonda har xil so'zlarni gapiraverish qoralanadi. Insonning axloqini, tarbiyasini ko'rsatadigan narsa tili, muomalasi hisoblanadi. Asarda bu haqida "Odamni til ulug'laydi, uni baxtiyor qiladi, shuningdek, til odamni benadryl ham qiladi, uning boshiga balolar keltiradi. Odam so'z tufayli ulug'likka erishadi, podsha bo'ladi, ko'p va ortiqcha so'z esa yuzni yerga qaratadi" [3; 7]. Yaxshi fe'lli va ezgu so'zli kishilar qarimaydi. Adib insonlarni ezgulikka chaqiradi. Kitobga nom berilishi haqida shunday yozadi: "Kitobga "Qutadg'u bilig" deb nom berdim, o'quvchini baxtga eltsin, uni yaxshi ishlarga yo'llasin deb umid qildim. O'z aytmoqchi bo'lgan so'zlarimni kitob qilib yozdim, shoyadki, uning shuhrati jumlai jahonga yoyilgay" [3; 15]. Adibning nomi butun dunyoga yoyildi. Doston necha asrlardan beri o'z qadr-qimmatini yo'qotganligi yo'q. Demak, adib maqsadiga erishdi. Dostonning har bir gapi, so'zi qimmatli ahamiyatga ega. Yusuf Xos Hojib atrofdagi kishilar bilan xushmuomalali bo'lishga undaydi. Dostonda dono-olimlar, tabiblar, duoxonlar, yulduzchilar, shoirlar, dehqonlar, savfogarlar va boshqa kishilar bilan qanday muomalada bo'lish haqida so'z yuritadi. Jumladan, shoirlarni shunday ta'riflaydi: "Ular so'z teruvchilardir, tillari qilichdan ham o'tkirroqdir. Ular maqtasalar maqtovlari El orasida yoyiladi, agar so'ksalar kishining nomi yomon bo'lib qoladi" [3;213]. Shoirlar bilan yaxshi muomalada bo'lishni aytadi. Agar yaxshi maqtov olishni istasang, ularni sevintirgin deb yozadi. Zamona nobopligi, do'stlar jafosi haqida ham so'z yuritadi. "Vafoga qahat keldi, jahonda jafo to'lib ketdi, kimda vafo qolgan bo'lsa, men undan ozroq so'rayin. Mabodo, birorta vafoli, saxiy odam

topa olsam, uni yelkamda ardoqlab ko'tarayin, ko'zimga surtayin. Agar vafoli odamni topa olmasam, tog'larda kiyiklar bilan tiriklik qilayin"- deb yozadi [3;322]. Bu gaplar orqali adib ko'p nohaqliklarga uchraganligini ko'rishimiz mumkin. Asarda ham, hayotda ham vafoli insonlar qadrlanadi. Vafo, mehr-oqibat insoniyatni ulug' qiluvchi sifatlar hisoblanadi. Asar to'laqonli pand-nasihat yo'nalishida yozilgan. Har qanday holatda ham inson o'zini, nafsini boshqarishi, so'ziga, tiliga ehtiyot bo'lishi, do'st tanlashda adashmasligi haqida so'z boradi. Doston odob-axloqqa chorlaydi. Yaxshi do'st bo'lishga undaydi. Insoniy fazilatlar e'zozlanadi. Yusuf Xos Hojib asar yakunida shunday yozadi:

"Ey Yusuf, kerak so'zni so'zla faqat

Keraksiz so'z aytsang bo'lar yuz qaro

Talay so'z so'zlama tuzi ketmasin

Talay so'z odamni qilar dil xira" [3;325].

"Qutadg'u bilig" dostoni ko'plab olimlar tomonidan o'rganildi. "Arabcha, tojikcha kitoblar ko'p bo'lib, bizning tilimizda mazkur kitob donishmandlikning ilk namunasi edi. "Qutadg'u bilig" dostoni o'z davrida keng shuhrat qozongan, turkiy tildagi eng yaxshi asar sifatida baholangan. Mazkur pandnomaning turli joylarda turlicha nomlar bilan atalganligini muallifning o'zi asar muqaddimasida faxr bilan ta'kidlaydi" [4; 69]. Bu fikrlar asarning o'sha davrdan juda mashhur bo'lganligini ko'rsatadi. "Qutadg'u bilig" dostoni asr oshgan asarlar sirasiga kiradi. Hech shubhasiz, bu doston hozirgi kunda ham yuqori mavqedagi asar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot 11-sinf I qism darslik Toshkent-2018
2. I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T-2008
3. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" Toshkent-1972
4. "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" R. Vohidov, H. Eshonqulov Toshkent-2006